ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MANAGEMENT OF PROFESSIONAL ACTIVITY OF TEACHERS IN THE PROCESS OF FORMING METACOGNITIVE SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

ISCHANOVA IKBOL IBRAGIMOVNA
1st year master's student of Bucheon University in Tashkent

Annotation: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of managing the professional activity of educators in the process of forming metacognitive skills in preschool children. In the conditions of new Uzbekistan, the need to modernize the preschool education system and combine children's readiness for school with not only cognitive, but also metacognitive development is substantiated. The concept of metacognition, the composition of metacognitive knowledge, experience and strategies are highlighted on the basis of scientific sources, and their role in the processes of adaptation to school, planning, self-control and reflection is shown. The professional competence of educators in the practical application of the metacognitive approach, the mechanisms of improving their skills through seminars, the teacher-student system, open classes and methodological manuals are scientifically and analytically revealed. Methods of complex use of observation cards, reflective interviews, activity analysis and psychological tests in diagnosing metacognitive skills in children are described. As a result of the proposed management model, the development of planning and control skills in children, strengthening independent thinking, increasing the quality of school preparation and increasing the professional competence of educators are justified as expected results.

Keywords: preschool education, cognitive skills, metacognitive skills, metacognition, metacognitive strategies, professional competence of the educator, pedagogical management model, diagnostics and monitoring, reflection, school preparation.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA METAKOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA TARBIYACHILARNING KASBIY FAOLIYATINI BOSHQARISH

ISCHANOVA IKBOL IBRAGIMOVNA
Toshkentdagi Puchon Universitetining
1 kurs magistranti

Annotatsiya:Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etiladi. Yangi O‘zbekiston sharoitida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarning maktabga tayyorgarligini nafaqat kognitiv, balki metakognitiv rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Metakognitsiya tushunchasi, metakognitiv bilim, tajriba va strategiyalar tarkibi ilmiy manbalar asosida yoritilib, ularning maktabga moslashuv, rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya jarayonlaridagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Tarbiyachilarning metakognitiv yondashuvni amaliyotga tatbiq etishidagi kasbiy kompetentligi, seminarlar, ustoz–shogird tizimi, ochiq mashg‘ulotlar va metodik qo‘llanmalar orqali malaka oshirish mexanizmlari ilmiy-analitik jihatdan ochib beriladi. Bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni diagnostika qilishda kuzatish kartalari, refleksiv suhbatlar, faoliyat tahlili va psixologik testlardan kompleks foydalanish usullari tavsiflanadi. Taklif etilgan boshqaruv modeli natijasida bolalarda rejalashtirish va nazorat

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

ko‘nikmalarining rivojlanishi, mustaqil fikrlashning kuchayishi, maktabga tayyorgarlik sifatining oshishi hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligining yuksalishi kutilayotgan natijalar sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, kognitiv ko‘nikmalar, metakognitiv ko‘nikmalar, metakognitsiya, metakognitiv strategiyalar, tarbiyachining kasbiy kompetentligi, pedagogik boshqaruv modeli, diagnostika va monitoring, refleksiya, maktabga tayyorgarlik.

Yangi O‘zbekiston sharoitida maktabgacha ta’lim tizimining modernizatsiyasi, bolalarning maktabga har tomonlama tayyorligini ta’minlash masalasi davlat siyosatining стратегик йўналиши сифатида қаралмоқда [1; 3]. Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlash faqat savod o‘rgatish yoki kognitiv jarayonlarni rivojlantirish bilan cheklanmaydi; balki bolaning o‘z faoliyatini ongli boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish, baholash ва мустақил ўрганиш қобилиятларини қамраб олувчи метакогнитив кўникмаларни тарбиялаш муҳим ўрин тутади.

Metakognitiv ko‘nikmalar bolaning "o‘z bilish jarayonini anglash" қобилияти билан боғлиқ бўлиб, уларни ривожлантириш жараёнида тарбиячининг касбий компетентлиги ва унинг фаолиятини оқилона бошқариш тизими ҳал қилувчи аҳамият касб этади [6; 12]. Shu sababli ushbu ilmiy-analitik ishda maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida tarbiyachilar kasbiy faoliyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari таркибий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Ilmiy bilish tizimli tafakkur, isbot va dalillarga tayanishi bilan ajralib turadi. Bolalarda ham dunyoni anglash jarayoni bosqichma-bosqich shakllanib, avval hissiy-idrok, keyinchalik obrazli va nazariy fikrlash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [7; 10]. Psixologik tadqiqotlar (J.Piaje, L.Vigotskiy) bolada kayngi bosqichlarda analiz, sintez, umumlashtirish va sabab–oqibat aloqalarini tushunish kabi kognitiv jarayonlar faollashishini ko‘rsatadi [8; 9]. Mazkur jarayon fonida bola o‘z fikrlashini kuzatishga, xatolarni sezishga va tuzatishga intilishini namoyon eta boshlaydi — bu metakognitiv tafakkurning boshlang‘ich ko‘rinishidir .

Metakognitsiya (metabilish) — insonning o‘z bilish jarayonlari haqidagi bilimi va ularni nazorat qilish qobiliyati bo‘lib, Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan .Kognitiv ko‘nikmalar oddiy fikrlash amaliyotlarini (taqqoslash, eslab qolish, tahlil qilish) qamrab olsa, metakognitiv ko‘nikmalar "men qanday o‘rganayapman?" kabi savollarga javob topishni anglatadi .

Metakognitiv bilim uch tarkibga ega:

metakognitiv bilim — shaxsning o‘z kuchli-zaif tomonlari, bilim olish usullari haqidagi tasavvurlari;

metakognitiv tajriba — o‘qish jarayonida sezilgan his-kechinmalar;

metakognitiv strategiyalar — rejalashtirish, control, baholash mexanizmlari.

Metakognitiv tafakkur bolaning maktab ta’limiga moslashishining prognoz kuratuvchi omillaridan biri sifatida qaraladi. Maktabga kelgan bola:diqqatini boshqara olishi;topshiriq ketma-ketligini tushunishi;xatolarni anglab, to‘g‘rilashga urinishi;“men tushundimmi?” kabi refleksiv savollar bera olishi zarur.

Metakognitiv yondashuvni maktabgacha ta’lim amaliyotiga sifatli tatbiq etish, avvalo, tarbiyachilarning metodik, psixologik va innovatsion tayyorgarligiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy rivoji va ta’lim sifati o‘rtasida funksional bog‘liqlik mavjudligi isbotlangan (Vygotskiy, Davыdov, Brown va boshqalar). Shundan kelib chiqqan holda tarbiyachilarni tayyorlash va malakasini oshirish quyidagi tizimli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

a) Seminarlar va ilmiy-uslubiy treninglar

Seminarlar metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari, kognitiv rivojlanish psixologiyasi, bolalarda rejalashtirish, monitoring va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga doir ilg‘or metodlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Seminarlar quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

- **metakognitsiya psixologiyasi (**Flavell konsepsiyasi asosida**);**
- **metakognitiv strategiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;**
- **rivojlantiruvchi ta’lim va faoliyatga asoslangan yondashuvlar;**
- **reja–amal–refleksiya siklini tarbiyaviy faoliyatga joriy etish.**

Seminarlar davomida tarbiyachilar amaliy vazifalar, interaktiv muhokamalar va kuzatish materiallari orqali real pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladilar. Bu esa ularda nazariy tushunchalarning amaliy ko‘nikmaga aylanishiga zamin yaratadi.

b) Ustoz–shogird tizimi

Tajriba yetishmasligi tarbiyachining metakognitiv yondashuvni qo‘llashda duch keladigan asosiy muammolardan biridir. Ustoz–shogird tizimi:malakali pedagoglar tajribasini yosh mutaxassislarga uzatish,mashg‘ulotni rejalashtirish va tahlil qilish bo‘yicha shaxsiy yo‘l-yo‘riqlar berish,pedagogik refleksiyani shakllantirishkabi vazifalarni bajaradi.

Bu tizim doirasida ustoz pedagog quyidagilarni amalga oshiradi: **shogirdning faoliyatini kuzatadi**, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; **refleksiv suhbat o‘tkazadi**, qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda yordam beradi; **metakognitiv mashg‘ulotlar namunalarini o‘rgatadi** – muammoli savollar berish, bolalarda o‘z-o‘zini nazorat qilishni rag‘batlantiruvchi topshiriqlarni tanlash.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ustoz–shogird tizimi kasbiy rivojlanishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, mutaxassisning refleksiv madaniyatini shakllantiradi va doimiy o‘sishga undaydi.

c) Ochiq mashg‘ulotlar va tahliliy kuzatishlar

Ochiq mashg‘ulotlar tarbiyachining amaliy faoliyatini kompleks baholash, metodik kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Mashg‘ulotlardan so‘ng: **kollegial tahlil,refleksiv suhbat,ustozning tavsiyalari** amalga oshiriladi.

Bunda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:metakognitiv savollar qo‘llanilganmi?bolalar o‘z faoliyatini baholay oldimi?topshiriqning rejalashtirish–amal–natijani tahlil qilish zanjiri to‘liq bo‘ldimi?

Ochiq mashg‘ulotlar tarbiyachilarni o‘z faoliyatini ilmiy asosda kuzatish va takomillashtirishga o‘rgatadi.Metodik qo‘llanmalar tarbiyachining mustaqil o‘qish va yangicha metodlarni o‘zlashtirishiga imkon beradi. Qo‘llanmalarda quyidagilar bo‘lishi kerak:metakognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha yoshga mos mashqlar; rejalashtirish, monitoring va refleksiya usullarining tavsifi; mashg‘ulotlar ssenariylari; bolalarning individual rivojlanish trayektoriyasini qurish bo‘yicha tavsiyalar. Bolalarda metakognitiv ko‘nikmalar shakllanishi bosqichma-bosqich kechadi va uni to‘g‘ri baholash tarbiyaviy jarayonning samaradorligini aniqlash uchun muhimdir. Diagnostika jarayonlari integrativ xarakterga ega bo‘lib, bir nechta metodlar orqali amalga oshiriladi.

a) Kuzatish kartalari

Kuzatish – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng mos baholash vositasi. Maxsus ishlab chiqilgan kuzatish kartalarida quyidagi indikatorlar qayd etiladi:bolaning topshiriqni rejalashtira olishi; faoliyat davomida strategiyani o‘zgartira bilishi; xatolarni sezishi va tuzatishga urinishlari; o‘z

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

faoliyati haqida fikr bildira olishi.Bu metod real vaziyatdagi tabiiy metakognitiv faollikni aniqlash imkonini beradi.

b) Refleksiv suhbatlar

Refleksiya suhbat shaklida o‘tkazilib, bolaning ichki fikr yuritish jarayonlarini aniqlashga yordam beradi. Savollar: “Topshiriqni bajarishda nimalar yordam berdi?”; “Nimani boshqacha qilgan bo‘larding?”; “Keyingi safar qanday reja tuzasan?”

Suhbatlar bola o‘z fikrini ongli ifodalashga odatlanishini ta’minlaydi.

c) Faoliyat tahlili

Bolalarning bajarilgan ish namunalarini (rasmlar, konstruksiya, loyihalar, yozma va og‘zaki javoblar) tahlil qilish orqali quyidagilar baholanadi: rejalashtirish izchilligi; jarayon davomida strategiyaning o‘zgarishi; bajarilgan ishga berilgan baho darajasi;mustaqillik darajasi.Faoliyat tahlili bolaning kognitiv jarayonlarining dinamikasini ko‘rsatadi.

d) Psixologik testlar

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan psixodiagnostik metodlar qo‘llanadi:vizual-yordamchi testlar, rejalashtirish bo‘yicha topshiriqlar, M. Halperin, J. Bruner, Flavell maktablari asosida yaratilgan diagnostik modellar .Testlar bolaning intellektual faolligi, strategiya tanlashi, xatolarni anglash qobiliyati va metakognitiv tajribasini aniqlaydi.

XULOSA

Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish maktabgacha ta’limning zamonaviy talablari bilan uyg‘un bo‘lib, bolaning intellektual mustaqilligini kuchaytiradi, maktabga moslashishini yengillashtiradi ва kelgusidagi muvaffaqiyatli o‘qishining kafolatidir. Taklif etilayotgan boshqaruv modeli esa тарбиячининг касбий фаолиятини tizimlashtirib, ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishra xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi maktабgacha ta’limga oid normativ hujjatlar. – Toshkent, 2020.

2.Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.

3.“O‘zbekiston–2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023.

4.Usmonova E.Z. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshкент: Fan, 2015.

5.Мелибаева Р.Н.. Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации. Научный журнал. «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук», №12, стр. 349-351.

6.Qodirova F.R. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent, 2015.

7.Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech’. – Moskva: Pedagogika, 1982.

8.Piaget J. Psixologiya intellekta. – Moskva, 1994.

9.Davыdov V.V. Teoriya razvivayushchego obucheniya. – Moskva, 1996.

10. Galperin P.Ya. Psixologiya myshleniya. – Moskva: MGU, 1985.

11. Podd’yakov N.N. Razvitie issledovatelskoy deyatelnosti doshkolnikov. – Moskva: Pedagogika, 1996.

12. Zateeva E.V. Podgotovka pedagogov doshkolnogo obrazovaniya… – Moskva, 2012.

13. Flavell J. Metacognition and Cognitive Monitoring // American Psychologist. – 1979.

14. Brown A. Metacognitive Skills in Learning. – Hillsdale, 1987.

15. Schraw G., Moshman D. Metacognitive Theories // Educational Psychology Review. – 1995.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

16. EFFECTIVENESS OF COMPETENT APPROACH IN ORGANIZING PRESCHOOL EDUCATION. (2023). *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, *1*(9), 27-29.

17. Abubakirovna, Dekhkambayeva Zulfia. "SOCIAL ADAPTATION OF CHILDREN IN KINDERGARTEN OF PRESCHOOL AGE." *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research* 1.9 (2023): 76-79

18. Zulfiya, D. "MAKTABGACHA TALIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING DOLZARBLIGI." *IQRO INDEXING* 1.1 (2023): 36-40.

19. Zulfiya, D. (2023). MAKTABGACHA TALIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING DOLZARBLIGI. *IQRO INDEXING*, *1*(1), 36-40.

20. Melibayeva, R. N., Narmetova, Y. K., Bekmirov, T. R., Bekmirov, T. R., & Abdumutalibova, M. M. (2023). Oilalarda Nevrotik Buzilishlar Sabablari Va Ularni Bartaraf Etish Usullari. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, *2*(12), 695-699.

21. Axmedova, M. E., Melibayeva, R. N., Bekmirov, T. R., & Nurmatov, A. N. (2022). KASBIY PEDAGOGIKA DARSLIK.

22. Мелибаева, Р. (2019). Использование обобщенных способов учебной деятельности-фактор совершенствования творческого мышления.

23. Мелибаева, Р. Н. (2019). Талабалар тафаккурини ривожлантиришда укув машгулотларининг урни. PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет, (2), 35-40.